

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK O'QITISH USULI

Maqsudova Muhtaram Rivojiddinovna

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani

15-umumiy o'rta ta'lif muktabining boshlang'ich ta'lif fani o'qituchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertak o'qitish usuli hamda ularga matn haqida tushuncha berib borilishida va fikr yuritishda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritiladi. Ertak va hikoyalar bilan ishslash o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va ulardagi so'zdan foydalanish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ertak o'qitish, xalq og'zaki, ta'lif tarbiya , barkamol yosh avlod;

Ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy olamini boyitish maqsadida xalq og'zaki ijodining namunalari bilan tanishtirib boriladi. Bunda, o'quvchilar yoshiga mos holda ertak va hikoyalar tanlanadi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilning ta'sirchanligi, ifodali vositalarning jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ular kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shilib ketadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, „Davlat“, „Tuz haqi“, „Ovchi, Ko'kcha, Dono“, „Ilm afzal“ kabi ertaklarni ham o'qiydilar. O'quvchilarni bunday ertaklarni o'qishga tayyorlash ilmiy-ommabop tekstlarni o'qishga tayyorlash kabi bo'ladi (kuzatish, ekskursiya, fan darslari), ertakni o'qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi.

Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertak qismlarini obrazlar (rollar)ga bo‘lib o‘qiydilar.

Bundan tashqari bolalar 4-sinfda „Davlat“ ertagini o‘qiydilar. Bu ertak oddiy turmushga tegishli elementlarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakda fantastika bo‘lganligi uchun o‘quvchilarni ertakni o‘qishga taxminiy tayyorlashni talab qiladi. Ertakni o‘qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliq dunyoni qanday tasavvur qilishlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagagi badiiy obrazlarni, ularning o‘zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarekterlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Ertak ustida ishslashda bolalarni ertak o‘qitishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘siradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinflardagi ta‘lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari o‘rganilishi lozim bo‘lgan materialning mazmuni va tuzilishini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan boshlang‘ichsinflarda ko‘plab ertaklar o‘rganiladi. Xususan, 1-sinf "Ona tili va o‘qish savodxonligi" darsligining "San‘at va madaniyat" bo‘limidagi "Ertakdagagi qahramon" mavzusi doirasida "Zumrad va Qimmat". "To‘g‘rivoy bilan Egriboy". "Uch og‘ayni botirlar" kabi o‘zbek xalq ertaklari haqida ma‘lumot beriladi hamda "Serkaboboning hiylasi" ertagi o‘rganiladi. 3- sinf "O‘qish kitobi" darsligida 12 bo‘lim bo‘lib, "Xalq og‘zaki ijodi" bo‘limida 3 ta ertak: "Halollik", "Donishmand yigit", "Ahillik- ulug‘ baxt" ertaklari berilgan. Darslikning "Jahon bolalar" adabiyoti bo‘limida esa "Anbe va Ranbe" hind xalq ertagi hamda "Dog‘da qolgan qarg‘a" laos xalq ertagi berilgan. 4-sinf "O‘qish kitobi" darsligida 12 bo‘lim bo‘lib, uning "Xalq og‘zaki ijodi" bo‘limida 2 ta ertak: "Davlat", "Ziyorak uch yigit" kabi ertaklar mavjud.

Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qitish o‘qituvchilar oldiga quyidagicha talablarni

- 1) ertak matnlari asosida o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini hosil qilish; qo'yadi:
- 2) o'quvchilarning matn mazmunini to'la tushunishlariga erishish;
- 3) ertakdagi obrazlarni bir-biridan farqlay bilishga o'rgatish;
- 4) o'quvchilarni voqeа-hodisalarни, hayotiy faktlarni, fantaziyani to‘g‘ri tushunishga o'rgatish;
- 5) o'quvchilarning estetik zavq olishlariga erishish;

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, shubhasiz, o'quvchilar nutqining yanada boyishiga ertaklar ijobiy ta'sir etadi. Ertaklarni o'qish, uni o'rganish o'quvchilar nutqini o'stirish bilan bog'liq holda olib boriladi.O'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish ishi o'quvchiga notanish so'zlarni tushuntirish, xalq iboralari, maqollarni nutqda qo'llash, predmetlarni turkumlarga ajratish orqali amalga ashiriladi. Gap tuzdirish mashqi savollarga javob olish, nutqda xalq iboralari, maqollarni ishlatish asosida o'qiladi. Matn tuzish esa, rasmga qarab hikoya yozdirish, o'zgalardan eshitgan ertakni qayta aytirishdan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlangich ta'lim).- Toshkent, 2017
- 2.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poctic ijodi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
- 3.Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, 2009.
- 4.Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik. 1-qism.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-104 b.